

Mavzu : Kreditning mohiyati va vazifalari. Banklar, ularning turlari va kredit tizimifagi roli.

Reja :

Kirish	2
Asosiy qism	4
1. Kreditning mohiyati va zarurligi.....	4
2. Kredit tizimi haqida tushuncha va uning tarkibiy qismi.....	7
3. Kreditning asosiy shakllari va turlari.....	11
4. Markaziy va tijorat banklarining ahamiyati va vazifalari.....	17
5. O'zbekiston banklarining rivojlanish yo'llari va islohotlari.....	23
Xulosa	27
Adabiyotlar ro'yxati	28

Kirish

Bizga ma'lumki, pul mablag'lariga ko'p hollarda kreditlarga olingan mablag'lar, korxonalarning hisob varaqasidagi mablag'lar va naqd pullar, aylanma mablag'lar va moliyaviy resurslar kiradi.

Bu iqtisodiy kategoriyalar tashqi tomondan o'xshagani bilan, ularni ichki xususiyatlari juda xilma xil va bir-biriga o'xshamaydi.

Markaziy bank orqali davlatning iqtisodiy siyosati, yanada aniqrog'i davlatning pul-kredit siyosati olib boriladi. Markaziy bankning pul-kredit siyosati davlatning iqtisodiyotini boshqarish siyosatining bir qismi bo'lib, muomaladagi pul massasi, kredit hajmi, foiz stavkalari darajasini va boshqa pul muomalasi va ssuda kapitali bozori ko'rsatkichlarini o'zgartirish bilan bog'liq bo'lgan chora-tadbirlar yig'indisidan tashkil topadi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida bozor munosabatlarini qaror toptirish dolzarb tadbirlardan bo'lgan pul, kredit va bank tizimida ham chuqur o'zgarishlarni amalga oshirishni taqozo qildi. Bozor munosabatlariga o'tish iqtisodiy kategoriya sifatida pulning, kreditning, foiz, soliq va boshqa kategoriyalarning mohiyati va ahamiyatiga yangicha yondashish zarurligini taqozo qiladi.

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida bank-moliya tizimining ahamiyati tubdan o'zgarmoqda. Bozor munosabatlarini boshqarish sohasida davlat tomonidan olib boriladigan barcha ishlarning og'irlik markazi ana shu tizimlarga ko'chdi.

Shu sababli, bank tizimini takomillashtirish, banklarning mustaqilligi va pul muomalasidagi ahvol uchun javobgarligini oshirish, pul-kredit munosabatlarini tartibga solish, so'mning barqarorligi va yuksak nufuzini ta'minlash sohasidagi muammolarni o'rganish, shuningdek, tegishli ilmiy xulosalar chiqarish va tavsiyalarni ishlab chiqish o'ta dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Bozor munosabatlarini talab darajasida tashkil qilish, ishlab chiqarishni rivojlantirish, kengaytirish va shu asosda iqtisodiy taraqqiyotga erishish kreditdan foydalanishni, banklar faoliyatining samaradorligini oshirishni, kreditdan

foydalanishda salbiy holatlarni oldini olishni taqozo qiladi. Hozirgi vaqtda tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlarning salmog'i va sifati sohasida ancha muammolar mavjud.

Har bir jamiyatda bank tizimi uning iqtisodiy tizimining muhim va ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Tarixan tovar ishlab chiqarish va muomala jarayonining rivojlanishi banklarning rivojlanishi bilan o'zaro bog'liq holda taraqqiy qilib borgan. Banklar xo'jaliklarga kredit bera turib, korxona, tashkilotlar o'rtasida hisob-kitoblarni o'tkaza borib, kapital harakatida vositachi sifatida maydonga chiqadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank tizimida katta tarkibiy o'zgarishlar yuzaga keldi va banklarning tarkibi va ular bajaradigan funktsiyalar va ularga yuklangan vazifalarning mohiyati va sifati o'zgarib bormoqda. Banklar ma'muriy buyruqbozlik tizimida ishlashdan yangi bozor munosabatlari sharoitida ishlashga o'tdi.

Bozor munosabatlari sharoitida ishlash banklardan yangi xizmat turlarini tadbiq qilish, mijozlarning qiziqishlarini hisobga olish, ularga xizmat ko'rsatishning yangi usullarini joriy qilish, yangi kredit vositalarini banklar faoliyatida qo'llash, turli xil kredit institutlarining barpo qilinishi bilan bog'liq jarayonlarning yuzaga kelishiga olib keldi.

Asosiy qism

Kreditning mohiyati va zarurligi.

Kredit - bu vaqtincha bo'sh turgan pul mablarlarini ma'lum muddatga, haq to'lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan iqtisodiy munosabatlar yig'indisidir.

Kredit yordamida tovar - moddiy boyliklari, turli mashina va mexanizmlar sotib olinadi, iste'molchilarning mablag'lari etarli bo'lmagan sharoitda to'lovni kechiktirib tovarlar sotib olishlari va boshqa har xil to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Kredit iqtisodiy kategoriya bo'lib, ijtimoiy munosabatlarning aniq bir ko'rinishi sifatida yuzaga chiqadi.

Kredit har qanday ijtimoiy munosabat emas, balki ijtimoiy ishlab chiqarish mahsuli, qiymatning harakati, qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni ifodalovchi kategoriyadir.

Kreditning mohiyati uning ichki belgilarini ochib berishga qaratilgan. Kreditning mohiyatini ochish - bu uning sifatlarini, kreditning muhim tomonlarini, uni iqtisodiy munosabatlar tizimining bir elementi sifatida ko'rsatuvchi asoslarini bilish demakdir.

Iqtisodchi olimlardan Qodirov A., Pessel M. Kredit iqtisodiy kategoriya bo'lib, unda ishlab chiqarish munosabatlari o'z aksini topadi va davlat, xo'jalik tashkilotlari, korxonalar va muassasalar bir-biriga kreditni ma'lum vaqtga, uni qaytarib berish va to'lash sharti bilan beradilar deb ta'kidlaydilar.

YUqoridagi fikrlarga asoslangan holda kreditning ba'zi muhim tomonlari aniqlanadi:


birinchidan, uning ijtimoiy mahsulot yaratish, milliy daromad va pul resurslarini qayta taqsimlashga bog'liqligi;

ikkinchidan, kreditning harakat shakliga (tovar yoki pul tarzida) ega ekanligi;

uchinchidan, takror ishlab chiqarishdagi harakatning asosiy hal etuvchi belgisi (qarz) ekanligi va hakoza.

Berilgan kreditni qaytarib berish shart. U huddi shu sifati bilan moliyadan farq qiladi. Bir qator iqtisodchilarning fikricha, kredit jamiyatdagi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini yig'ish va ularni taqsimlash shaklidir.

Kredit munosabat bo'lishi uchun uning zurrur elementlari kreditning ob'ekti va sub'ekti bo'lishi zarur.



Kredit munosabatlarida sub'ektlar ikki xil bo'ladi:

- 1.Kreditor (qarz beruvchi)
- 2.qarzdor (qarz oluvchi)

Kredit ob'ekti - bu (kreditor) qarz beruvchidan qarz oluvchiga beriladigan va qarz oluvchidan qarz beruvchiga qaytib beriladigan qiymatdir.

Bunda qarzga berilgan mablag' o'z qiymatini saqlab qolishi kreditning asosiy xususiyati hisoblanadi. Kredit tarkibi uning elementlari birligini ifodalaydi.

Kredit tovar-pul munosabatlari mavjud sharoitdagi takror ishlab chiqarish jarayonining ajralmas bir qismi bo'lib, tovar ishlab chiqarish kredit munosabatlari vujudga kelishining tabiiy asosi hisoblanadi.

Kreditning vujudga kelishini nafaqat ichki iste'mol uchun tovar ishlab chiqarish doirasidan emas, balki asosan yuridik jihatdan mustaqil bir-biriga

mulkdor sifatida qarama-qarshi turuvchi va iqtisodiy munosabatlarga kirishishga tayyor tovar egalari faoliyat ko'rsatayotgan muomala doirasidan qidirish kerak.

Ishlab chiqarish fondlarining doiraviy aylanishidagi va fondlarning bir marta aylanishidagi qiymatning harakati qisqa muddatli kredit munosabatlari paydo bo'lishining iqtisodiy asosidir.

Korxona ishlab chiqarish fondlarining doiraviy aylanishidagi tebranishlar zaminida ishlab chiqarish vaqti bilan mahsulotlarni sotish vaqtining mos kelmay qolishidan vujudga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etuvchi munosabatlarning paydo bo'lishi tabiiy holga aylanadi.

Bu munosabatlar mablag'larning vaqtincha bekor turib qolishi bilan bu mablag'larga bo'lgan ehtiyoj o'rtasidagi qarama-qarshilikni bartaraf etadi. Bunday munosabatlar odatda kredit munosabatlari deb yuritiladi va kredit munosabatlari asosida iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lgan kredit kategoriyasi yuzaga keladi.

Kredit orqali jamiyatimizda quyidagi ijobiy natijalarga erishish mumkin: birinchidan, fondlar aylanishi jarayonida chetga chiqib bo'sh qolgan mablag'larning harakatsiz turib qolishining oldini olinadi;

ikkinchidan, takror ishlab chiqarishni keng doirada uzluksiz davom ettirishga imkoniyat yaratiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, kreditning ob'ektiv zarurligi takror ishlab chiqarish jarayonida fondlarning doiraviy aylanishi qonuniyatlariga asoslangandir.

Kreditga zaruriyat tug'ilganda, quyidagi manbalardagi bo'sh mablag'lardan kredit resurslar sifatida foydalanish mumkin:

1.Asosiy fondlarni tiklash, kapital ta'mirlash uchun ajratiladigan amortazatsiya sifatidagi pul mablag'lari;

2.Tovarlarni sotish va yangi moddiy resurslarni sotib olish vaqtlarining bir-biriga mos kelmaganligi tufayli yuzaga kelgan bo'sh pul mablag'lari;

3.Tovarlarni sotishdan tushgan tushum bilan ish haqini to'lash vaqtlari orasida vaqtincha bo'sh turib qolgan pul mablag'lari;

4.Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonida yig'iladigan va kapitallashtirish uchun mo'ljallangan qo'shimcha mablag'lar;

5. SHaxsiy sektor daromadlari, jamg'armalari va boshqa bo'sh pul mablag'lari.

Har qanday iqtisodiy kategoriya o'zining funktsiyalariga ega bo'lgani kabi kredit ham o'zining bir qator funktsiyalariga ega.

Ijtimoiy-iqtisodiy tizimda kreditning o'rni va roli u bajarayotgan funktsiyalari bilan aniqlanadi. Kreditning funktsiyasi – bu kreditning iqtisodiyotda faoliyatining muayyan ravishda namoyon bo'lishidir.

Kreditor va qarz oluvchi o'rtasidagi munosabat shunday aniqlanadiki, bunda kreditor qarz oluvchiga resurslarni taklif qiladi, qarz oluvchi bu resurslarni ishlatadi va qarzga beriluvchi qiymat kreditor va qarz oluvchi o'rtasida aylanadi. Bu erdan kreditning birinchi funktsiyasi kelib chiqadi.

Kreditning funktsiyalari quyidagilardan iborat:

1. Qarzga beriluvchi qiymatni vaqtincha foydalanishga berish funktsiyasi.
2. Qayta taqsimlash funktsiyasi.
3. Muomala xarajatlarini tejash funktsiyasi.
4. Kapital to'planishining jadallashuvi va kontsentratsiyalashuvi funktsiyasi.
5. Muomalaga to'lov vositalarini chiqarish funktsiyasi.

Iqtisodiy kategoriya sifatida kredit bir necha tamoyillarga ega. Bular:

- 1) kreditning qaytib berilishliligi,
- 2) kreditning muddatliligi,
- 3) kreditning ta'minlanganliligi,
- 4) kreditning maqsadliligi,
- 5) kreditning to'lovliligi,
- 6) kreditning samaradorligi

2. Kredit tizimi haqida tushuncha va uning tarkibiy qismi.

Kredit tizimi deb kredit munosabatlar majmuasi va kredit munosabatlarni tashkil qiluvchi va amalga oshiruvchi kredit institutlar yig'indisiga aytiladi.

Kredit tizimi orqali huquqiy va jismoniy shaxslarning vaqtincha bo'sh mablag'lari yig'iladi va korxona, tashkilotlarga, aholiga, davlatga vaqtincha foydalanishga beriladi.

Kredit tizimi bir necha bo'g'inlardan iborat bo'lishi mumkin. Mablag'larni jalb qilishi va taqsimlanishga qarab kredit tizimi bo'g'inlari o'z xususiyatlariga ega bo'ladi.

Jahon amaliyotida kredit tizimi o'zining tashkil qilinish turiga qarab qo'yidagi guruhlariga bo'linadi:

- Markaziy bank;
- Tijorat banklar;
- Maxsus kredit institutlar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ikki pog'onali kredit bank tizimi ko'p mamlakatlar iqtisodiyotining asosi hisoblanadi. Bu Markaziy bank, bank institutlari va nobank kredit muassasalaridir.

Bank institutlariga qo'yidagi banklar kiradi:

- tijorat banklar;
- investitsiya banklari;
- jamg'armalar jalb qiluvchi banklar (O'zbekiston halq banki);
- ipoteka banki;
- savdo banklari;

Tashqi iqtisodiy aloqalar bo'yicha banklar, tarmoqlar bo'yicha ixtisoslashgan banklar va boshqalar.

- Nobank kredit tashkilotlarga;
- investitsiya kompaniyalari;
- sug'urta kompaniyalari;
- nafaqa va boshqa jamg'armalar kiradi.

Kredit tizimining tarkibiy qismlari

Kredit tizimida asosiy o'rinni bank institutlari, bank institutlari tarkibida esa salmoqli o'rinni tijorat banklari egallaydi. Tijorat banklari kredit tizimining boshqa

bo'g'inlariga nisbatan ko'proq bo'sh resurslarni jalb qiladi va ko'p miqdorda mijozlarga kreditlar beradi.

Maxsus ixtisoslashgan kredit institutlari (banklar) tijorat banklari faoliyatini to'ldiradi va ular milliy iqtisodiyot sohaslarining kam samarali, kam foydali tarmoqlari (qishloq xo'jaligi, uy-joy qurilishi, tadbirkorlikni rivojlantirish va boshqalar) ga engil sharoitda kreditlar berish yo'li bilan ular faoliyatini rag'batlantirib rivojlantirib boradi.

Banklar ma'lum belgilariga qarab qo'yidagi turlarga bo'linadi:

- Mulk shakliga qarab: aktsioner, noaktsioner, kooperativ, kommunal, davlat, aralash, halqaro banklarga bo'linadi;
- kredit beruvchi banklarga;
- milliy mavqei bo'yicha: milliy va xorijiy banklarga;
- faoliyat ko'rsatishi va bajaradigan funktsiyalariga qarab: depozit, universal, ixtisoslashgan banklarga bo'linadi;

Aktsioner banklar aktsioner kompaniyalar sifatida yuzaga kelgan banklar bo'lib, aktsiyalar chiqarish hisobidan ular kapitalining asosiy qismi yuzaga keltiriladi. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda bank tizimining asosiy qismini aktsioner banklar tashkil qiladi:

Noaktsioner banklar paychilar mablag'lari hisobidan tashkil qilingan banklar bo'lib, ular bir yoki bir necha shaxs ixtiyorida bo'lishi mumkin.

Mayda ishlab chiqaruvchilar, hunarmandlarning faoliyatini qo'llab - quvvatlash maqsadida kooperativ banklar tashkil qilinadi. Bu banklarning mablag'lari ishtirokchilarning mablag'lari hisobidan vujudga keltiriladi va mijozlarga ularning faoliyatini rivojlantirish uchun engil sharoitda kredit beriladi.

Kommunal banklar ixtisoslashgan kredit tashkilotlar bo'lib, kommunal xo'jalik va uy-joy qurilishini kreditlash va moliyalashtirish bilan shug'ullanadi.

Ixtisoslashtirilgan banklarning turlari sifatida investitsiya, jamg'arma, rivojlanish va taraqqiyot banklarini keltirish mumkin.


Kredit tizimining yana bir qismi nobank kredit muassasalari bo'lib, ular davlat va korxonalarni moliyalashtirish uzoq muddatli kreditlash bilan shug'ullanadi.


O'zbekistonda nobank kredit tashkilotlari to'g'risida qonun loyihasi ko'rib chiqildi. Unda sug'urta kompaniyalari, nafaqa fondlari va boshqa fondlarning mablag'laridan oqilona foydalanish va bu mablag'larning samaradorligini ta'minlash masalasi qo'yilgan edi. Har bir mamlakatning kredit tizimi o'z xususiyatiga ega bo'lib, rivojlangan yirik universal banklari tarmoqlarining ko'pligi va xilma-xilligi bilan ajralib turadi.

Biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, O'zbekistonda bank tizimi ikki pog'onali bo'lib, banklar tizimining birinchi pog'onasi bu O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, ikkinchi pog'onasi - tijorat banklari, ularning sho''balari chet el banklari sho''balari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi banklar tizimini kengaytirilgan holda quyidagi 1-chizmada keltirish mumkin.

1- chizma





3. Kreditning asosiy shakllari va turlari.

Sudxo'rlik krediti ibtidoiy tuzilmaning yo'qolib (tarqab) ketishi, ishlab chiqarish vositalariga xususiy mulkchilikning paydo bo'lishi hamda jamiyatda mulk differensiyatsiyasi natijasida tovar~pul munosabatlarining rivojlanishi davrida vujudga kelmasdir.

Sudxo'rlik krediti yer garovi asosida natura va pul shaklida berilgan. Bunday kreditlarning xususiyatlari quyidagilarda aks etadi:

- qarzidorlar sifatida savdo-sanoat ishlab chiqaruvchi shaxslar ishtirok etganlar;
- qarz mablag'laridan kapital sifatida, ya'ni, qo'shimcha qiymat olish vositasi sifatida foydalanilgan;
- ssuda foizi manbasi yollanma ishchilarning haq to'lanmagan mehnati qiymatidan iborat bo'lgan.

Tijorat krediti. Tijorat krediti, bu — faoliyat ko'rsatuvchilar tomonidan bir-birlariga o'zaro to'lovni kechiktirish sharti bilan tovar shaklida beriladigan kreditdir.

Tijorat kreditining obyekti - tovar kapitali hisoblanadi.

Tijorat kreditida kreditor va qarzdorlar faoliyat ko'rsaluvchilar (ishlab chiqaruvchilar) bo'ladi.

Tijorat kreditining cheklanishlari mavjud:

- faoliyat ko'rsatuvchilarning zahira kapitallari hajmi bilan cheklanganligi, ya'ni, unga hozirgi davrda oborot (muomala) uchun zarur bo'lmagan kapital bilan cheklanganligi;

- yo'nalishiga ko'ra, ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchi tarmoqlar kreditni ishlab chiqarish vositalarini iste'mol qiluvchilarga berishi mumkin, ammo teskarisi bo'lishi mumkin emas.

Bank krediti - pul egalari, banklar va boshqa kredit institutlari tomonidan ishlab chiqaruvchitarga hamda boshqa qarz oluvchilarga pul shaklida beriladigan ssudalardir.

Bank kreditining obyekti pul kapitalidir.

Bank kreditida ishlab chiqaruvchi shaxslar (faoliyat ko'rsatuvchilar) faqat qarz oluvchi sifatida ishtirok etadilar, kreditorlar esa ssuda kapitali egalari bo'ladi.

Iste'mol krediti - asosan tovarlarni sotish jarayonida ularning to'lovini kechiktirib to'lash huquqi berilishidir. Shu bilan birga iste'mol krediti banklar yoki maxsus kredit institutlari tomonidan iste'mol tovarlarini sotib olish va xizmat haqlarini to'lash hollarida beriladi.

Uning obyekti - uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar va xizmatlardir. Iste'mol krediti tovar va pul shaklida namoyon bo'lishi mumkin. Iste'mol krediti foizi o'zining yuqori darajada ekanligi bilan ajralib turadi va milliy daromadni qayta taqsimlashning ikkilamchi shakli sifatida aholi daromadlari hisobidan to'lanadi.

Davlat krediti va xususiy kredit. Davlat kreditida qarz oluvchi yoki kreditor sifatiga davlat ishtirok etadi. Davlat krediti davlat zayomlari shaktida, kaznachey (g'azna) majburiyatlarini chiqarish orqali, jamg'arma tashkilotlari jamg'armalari qoldiqlarini davlat qimmatbaho qog'o'lariga joylashtirish orqali amalga oshiriladi.

Davlat krediti mablag'lari ishlab chiqarish kapitalini takror ishlab chiqarishda ishtirok etmaydi, ya'ni, u moddiy qiymatliklar ishlab chiqarishda qatnashmaydi, faqat byudjet defitsitini qoplash maqsadida foydalaniladi.

Xususiy kredit davlat kreditidan tamomila farq qiladi. Chunki xususiy kreditda kreditor va qarz oluvchilar sifatida xususiy yuridik va jismoniy shaxslar ishtirok etadilar.

Xalqaro kredit. Bu kreditning paydo bo'lishiga xo'jalik hayotining baynalminallashuvi va xalqaro davlat shakllarining vujudga kelishi obyektiv asos bo'ladi.

Xalqaro kredit - bu ssuda kapitalining xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi harakatidir. Bunda bir davlat banklari, yuridik shaxslari tomonidan boshqa davlat hukumatiga, banklariga yoki boshqa yuridik shaxslariga kreditlar beriladi.

Xalqaro kredit quyidagi belgilari bilan ajralib turadi:

- kreditorlar va qarz oluvchilar — xususiy yuridik shaxslar (banklar, kompaniyalar va firmalar), davlat tashkilotlari va xalqaro valyuta krediti institutlari bo'lishi mumkin;

- qarz mablag'lari qarz oluvchi mamlakatda foiz keitiruvchi kapital sifatida ishlatiladi;

- ssuda foizi manbasi qarzdor mamlakatdagi yollanma ishchilar mehnati hisoblanadi.

Xalqaro bank krediti - bir mamlakat tomonidan boshqa bir mamlakatga (davlatga, yuridik va jismoniy shaxslarga) qisqa va o'rta uzoq muddatga vaqtincha foydalanishga beriladigan kredit shaklidir. Bank kreditlari qarz oluvchilar tomonidan xohlagan maqsadlarga ishlatilishi mumkin.

Kredit munosabatlari iqtisodiyotda mavjud aniq uslubiy asoslarga tayanadi. Uning asosiy elementlari bo'lgan ssuda kapitali bozori operatsiyalari ma'lum tamoyillar asosida olib boriladi.

Bular kreditning qaytarib berilishligi, muddatligi, taminlanganligi, maqsadlilik va to'lanishligi tamoyillaridir.

Kreditning qaytarib berilishligi tamoyili.

Bu tamoyil kreditning mustaqil iqtisodiy kategoriya ekanligi shartidir, qaytib berilishlik kreditning umumiy belgisi hisoblanadi. Qaytib berilishlik o'z-o'zidan vujudga kelmaydi: u moddiy jarayonlarga, qiymat aylanishining lugashiga

asoslanadi. Ammo doiraviy aylanishning tugashi - bu hali qaytarib berish emas, faqat qaytarib berish uchun zamin tayyorlashdir.

Uchun foiz shaklidagi to'lovi ham qo'shib qaytarilishini ifodalaydi.


Ssuda foizining stavkasi ssuda kapitalidan olingan yillik daromad summasining berilgan kredit summasiga nisbati bilan am'qlanib, kredit mablag'lari bahosi sifatida namoyon bo'ladi.

Kreditning maqsadliligi. Bu tamoyilning mohiyati shundaki, qarz oluvchi tomonidan olingan kreditlar aniq bir maqsadni amalga oshirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur.

Bunda kredit muayyan, aniq obyektga: ishlab chiqarish xarajatlariga, ishlab chiqarish zahiralarga, tayyor mahsulotga, jo'natilgan tovarlarga, hisob-kitob hujjatlariga va hokazolarga beriladi.

Shunday qilib, banklar tomonidan beriladigan kreditlarning asosiy tamoyillarini quyidagi sxemada ko'rsatish mumkin.

1-chizma



Ssuda kapitali o'ziga xos tovar sifatida gavdalanar ekan, u holda undan foydalanishda to'lanadigan foiz kapital "baho"si bo'lib ishtirok etadi. Ammo bu o'ziga xos baho tovarning pul shaklidagi qiymatini aks ettirmaydi, balki kapitalning tovar shaklidagi iste'mol qiymatini- foyda keltirish qobiliyatini aks ettiradi. Foiz normasi - ssuda kapitaliga olinadigan yillik daromadning qarzga (ssudaga) berilgan kapital summasiga nisbatidir. Masalan, 100 ming so'mlik kapital ssudaga berilgan bo'lsa, yillik foiz daromadi 4 ming so'mga teng bo'lsa, u holda foiz normasi 4 foizga teng bo'ladi.

Kreditning funitsiyasi - bu icreditning iqtisodiyotdagi faoliyati muayyan ravishda namoyonbo'lishidir.

Kreditni tahlil qilishda uning funksiyasi mohiyati va roli o'rtasidagi oraliq bo'g'in sifatida ko'rib chiqiladi.

Kredit tomonidan bajariladigan funksiyalar turii adabiyotlarda turlicha beriladi. Ko'pgina adabiyotlarda kreditning 4 ta funksiyasi ko'rsatilgan va asoslangan bo'lib, ular quyidagilardir:

- kapitallarni qayta taqsimlash va foyda normasini tekislash (tengiashtirish);

- muomala xarajatlarini tejash;

- kapitalning markazlashuvi;

- kapitalning yig'ilishi va jamg'arish funksiyasi.

Biroq boshqa ko'pgina kitoblarda kreditning boshqa 4 ta funksiyasi ko'rsatilgan:

- qayta taqsimlash funksiyasi;

- qayta takror ishlab chiqarish funksiyasi;

- muomaladagi haqiqiy naqd pul mablag'larini kredit muomala vositalari bilan almashtirishi;

- rag'banlantirish funksiyasi.

a) Kreditning qayta taqsimlanish funksiyasi 2 ko'rinishda — pul va tovar shakllarida amalga oshirilishi mumkin.

b) Takror ishlab chiqarish funksiyasida esa kredit 2 xil ko'rinishda namoyon bo'ladi:

1. Qarz oluvchi tomonidan olingan kreditlar ularga kerakli kapital hajmini ta'minlaydi, tadbirkorlik faoliyatini olib borishiga imkon yaratiladi.

2. Turli korxonalarga kredit berilishi natijasida jamiyat miqyosida ishlab chiqarish uchun yaxshi va yomon holatlar (sharoitlar) vujudga kelishi murakin (sifat, tannarx, baho).

c) Muomaladagi haqiqiy va naqd pul mablag'larini kredit to'lov vositalari bilan almashtirish funksiyasida haqiqiy (oltin) pul va belgilari

(banknotalar) bilan almashtiriladi.

d) Rag'banlantirish funksiyasida kredit ishlab chiqarishga va muomalaga mikro va makro darajada ta'sir ko'rsatadi. Buning natijasida inablag'lardar tejimli foydalanishga asos yaratiladi.

Kreditning bu fumcsiyalari haqida olimlar o'rtasida yagona fiKr yo'q.

Kredit qayta ishlab chiqarish jarayonining barcha tarmoqlariga - ishlat chiqarish, taqsimlash, muomala va iste'molga xizmat Ko'rsatadi.

Qayta ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq holda Kredit, ishlat chiqarish, taqsimlash yoKJ iste'mol jarayonida Kechadigan funKsiyalardar farqli o'laroq, qayta taqsimlash fuiiKciyasini bajaradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ssuda Kapitali bozori vaqtincha bo'sh turgai moliyaviy resurslarni bir faoliyat jabhasidan boshqasiga yo'naltirisl funKsiyasini bajaradi.

Muomala xarajatlarini tejash funicsiyasi.

Kapitalning muomalada bo'lish vaqti tejalishi uning ishlab chiqarishd; bo'lish vaqtini oshiradi, bu esa ishlab chiqarishni Kengaytirishga, foydanini oitishiga olib Keladi.

Bu fuiiKsiyaning amalga oshishi Kreditning iqtisodiy mohiyatidan Kelib chiqqan.

g) Kapital to'planishining jadallashuvi va Konsentratsiyalashuvi ftinKSiyasi.

Bu ishlab chiqarishni Kengaytirish, shu bilan birga, qo'shimcha foyda olish uchun qarz mablag'laridan foydalanish imKonini yaratadi.

d) Muomala to'lov vositalarini chiqarish furiKsiyasi.

Bu funKsiyaning amalga oshish jarayonida (credit faqatgina tovar emas, baltci pul muomalasining jadallashuviga, undan naqd pultarni siqib chiqarib, to'lovlar ayianishining teziashuviga ijobiy ta'sir Ko'rsatadi. Kredit tufayli pul muomalasi doirasiga veksel, chek, Kredit KartochKalari Kabi vositalar Kiritilib, naqd pulli hisob-Kitoblar naqd pulsiz operatsiyalar bilan almashtiriladi.

Fan-texnika taraqqiyotining jadallashuvi ham Kredit orqali samarali amalga oshirilishi inumkin. Urushdan Keyingi yillarda fan-texnika taraqqiyoti har bir mamlakat yoki alohida xo'jalik yurituvchi sub'yekt iqtisodiy rivojining hal qiluvchi omiliga aylangan. Kreditning fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishdagi roli fan-texnika bilan shug'uliamivchi tashkilotlar faoliyatini moliyalashtirishda Kredit resurslari ishlatilishida ko'rinadi. Itmiy-tadqiqot ishlarini olib boruvchi markazlarning normal ishlab turishini ta'minlash uchun ham, ular faoliyatini moliyalashtirishda ham kredit resurslari ishlatilishi mumkin. Shuningdek, Kredit innovatsion jarayonlarda ishlab chiqarishga ilmiy tadqiqot natijalarini joriy qilish va ishlab chiqarish texnologiyasini o'zgartirish jarayonlarini amalga oshirish uchun ham zarur.

4. Markaziy va tijorat banklarining ahamiyati va vazifalari.

Markaziy bank - kredit tizimining bosh banki bo'lib, mamlakatda pul-kredit siyosatini, emissiya jarayonlarini olib boradi.

Birinchi Markaziy banklar bundan qariyb uch yuz yil oldin tijorat banklarining rivojlanishi natijasida vujudga kelgan. Bular 1688 yilda tashkil qilingan SHved Riks Jiro banki, 1694 yilda tashkil qilingan Angliya banklaridir. Markaziy bank, ya'ni kredit tizimini boshqarib turuvchi, barcha banklar faoliyatini nazorat qilib turuvchi kredit institut sifatida namoyon bo'ladi.

Markaziy bank quyidagi asosiy funktsiyalarni bajaradi:

- banknotlar (naqt pullar) emissiyasi,
- davlatning oltin-valyutasi zaxiralarini saqlash;
- pul-kredit siyosati instrumentlari yordamida iqtisodni muvofiqlashtirish;
- kredit institutlari faoliyatini muvofiqlashtirish;
- davlat banki sifatida faoliyat ko'rsatish;
- to'lov-hisob munosabatlarini tashkil qilishni belgilab berish;
- valyuta kursini muvofiqlashtirish.

Jahonning barcha mamlakatlarida banknotlarni muomalaga chiqarish funktsiyasi Markaziy banklarning asosiy funktsiyalaridan biri hisoblanadi va bu aholida monopol huquqqa ega.

Davlatning oltin - valyuta zahiralarini boshqarish funktsiyasi. Markaziy bank davlatning oltin, qimmatbaho metall va kamyob toshlarni, valyuta zaxiralarini boshqaradi.

Markaziy banklar mamlakat valyuta zahiralarini o'zida yig'adi va bu zahiralar xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish, to'lov balansi defitsitini qoplash va mamlakat milliy valyutasi kursining barqarorligini ta'minlash uchun ishlatiladi.

Pul - kredit siyosatining asosiy maqsadi milliy valyuta barqarorligini ta'minlash, valyuta kursi va foiz stavkalarini oqilona o'rnatish asosida inflyatsiya sur'atlarini kamaytirish, kreditdan foydalanishning samaradorligini oshirish va milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashdan iborat.

Markaziy bankning pul-kredit siyosatining asosiy instrumentlari bo'lib, quyidagilar hisoblanadi:

- minimal majburiy rezevr me'yorlarini o'rnatish;
- foiz (diskant) siyosati;
- tijorat banklarini qayta moliyalashtirish;
- ochiq bozor siyosati;
- targetlash va boshqalar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida O'zbekiston Respublikasida Markaziy bankning asosiy maqsadi - pul-kredit tizimi va milliy valyuta barqarorligini ta'minlash asosida iqtisodiy o'sishga erishishdan iborat.

Pul - kredit siyosatini samarali amalga oshirish uchun Markaziy bank pul-kredit siyosatini rivojlantirishning bir yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqadi. Bu yo'nalishlar Oliy Majlis tomonidan tasdiqlangandan so'ng harakat dasturi sifatida qabul qilinadi. Markaziy bankning vazifalari xilma xil bo'lib, bu qonunda aks ettirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki huquqiy shaxs sifatida davlat mulkiga asoslangan bo'lib, iqtisodiy jihatdan mustaqil muassasa sifatida o'z harajatlarini daromadlari hisobidan qoplashi kerak.

Milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qator muhim vazifalarni hal etadi. Ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

- monetar siyosatni va valyutani boshqarish siyosatini shakllantirish, qabul qilish hamda amalga oshirish;

- O'zbekiston Respublikasida hisob-kitoblarning samarali tizimini tashkil qilish va ta'minlash;

- banklar faoliyatini tartibga solish va banklar faoliyati ustidan nazorat qilish;

- O'zbekiston Respublikasining rasmiy oltin, valyuta zahirasi saqlash va ularni boshqarish;

- Moliya vazirligi bilan birgalikda davlat byudjetining kassa ijrosini tashkil etish;

O'zbekiston Respublikasi qonunlariga asosan bank - bu tijorat muassasasi bo'lib, jismoniy va huquqiy shaxslarning bo'sh turgan pul mablag'larini jalb qilish va ularni o'z nomidan, to'lovlilik, muddatlilik, qaytarib borish sharti asosida joylashtirish operatsiyalarini va boshqa bank operatsiyalarini bajaradi.

Tijorat banklarini fikrimizcha, shunchaki korxona emas, maxsus korxona deb qarash zarur. Chunki tijorat banklari ssuda kapitali xarakatini amalga oshiradi va shu asosda bank o'z aksionerlariga, ya'ni paychilariga foyda olishni ta'minlaydi. Tijorat banklari bank tizimining muhim bo'g'ini bo'lib, kredit resurslarining asosiy qismi shu banklarda yig'iladi va bu banklar huquqiy va jismoniy shaxslarga xizmatlarini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari bank tizimining Markaziy bankdan keyingi ikkinchi pog'onasi xisoblanadi.

Tijorat banklarning belgilariga qarab quyidagi turlarga bo'lish mumkin. Mulkchilik shakliga qarab banklar: davlat bankiga, aksioner banklarga,

kooperativ, xususiy, mintaqaviy, aralash mulkchilikka asoslangan banklarga bo'linadi.

Tijorat banklari quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi.

1. Vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini yig'ish va ularni kapitalga aylantirish;
2. Korxona, tashkilotlar, davlat va axolini kreditlash;
3. Muomalaga kredit pullar (muomalaning kredit vositalari) ni chiqarish;
4. Milliy iqtisodiyotda xisob-kitoblar va to'lovlarni amalga oshirish;
5. Moliya - valyuta bozorida faoliyat ko'rsatish;
6. Iqtisodiy – moliyaviy axborotlar berish va konsultatsiya xizmatlarini ko'rsatish.

Kredit-moliya tizimining barqarorligini, uning alohida bo'g'inlari -birinchi navbatda tijorat banklari faoliyati barqarorligini taminlashi mamlakat Markaziy bankining asosiy vazifasi hisoblanadi. Markaziy bankning asosiy vazifalaridan ya'na biri kredit organlan (tizimi) faoliyatini tartibga solish va umumlashtirishdan iboratdir.

Odatda Markaziy bank - bu davlat banki. Masalan, Angliya banki, Fransiya banki, Buides banki, Yaponiya banki, Sbvetsariya milliy banki, Finiyandiya banki va h.k. yagona banklardan tashkil topadi. Biroq AQSh Markaziy banki 12 hududiy Federal banklardan, ya'ni, federal zahira tizimi (FRS) boshqaruv kengashi tomonidan boshqariladigan bo'limlardan iboratdir.

Markaziy bank kapitalidagi mulk shakliga ko'ra ular Davlat (kapital davlatga tegishli), aksioner va aralash kapitalli turlarga bo'linadi.

Ba'zi Markaziy banklar Davlat banklari ko'rinishlarida shakllanadilar. Masalan, Nemis Federal Banki (Germaniya Buides banki). 1957 yilda u Rexs bankning davomchisi (1975 yilda paydo bo'lgan) sifatida shakllandi. Boshqa bir Markaziy banklar esa oldin xususiy bank (masalan, Angliya banki (1694), Fransiya banki (1800) kabilar) sifatida tashkil topib, keyinchalik esa natsionalizatsiya qilingan va davlat bankiga aylantirilgan.

Aksionerlik turidagi Markaziy bank qatoriga AQSh FRS (Federal Rezerv sistemasi) bankini kiritish mumkin. FRS 1913 yildagi Federal Rezervasosida

paydo bo'lgan Aralash turdagi Markaziy banklar jumlasiga -kapitalida davlat mulki, aksioner mulki, xususiy mulk va kapital ishtirok etgan banklar kiradi.

Markaziy bank funksiyalari uzoq yillar mobaynida deyarli o'zgarmaydi va aniq modifikatsiyalangan ko'rinishga egadir.

Turli iqtisodiy adabiyotlarda va o'quv darsliklarida Markaziy bank funksiyalari turlichalqin qilinadi.

Masalan V.M. Usoskijnining fikriga ko'ra, Markaziy bank funksiyalariga:

- kredit pullari (banknotlar) emissiyasi;
- banklar uchun va boshqa kredit tashkilotlari uchun turli xizmatlarni amalga oshirish;
- hukumatning moliyaviy agenti funksiyasi;
- markazlashgan oltin-valyuta zahirani saqlash;
- pul-kredit siyosati tadbirlarini o'tkazish kabilar kiradi.

"Moliya, pul muomalasi, kredit" kitobi mualliflari fikricha, Markaziy bankning asosiy funksiyasi: "muomalaga kredit pullari - banknotlarni chiqarish va pul muomalasini tartibga solishdan iboratdir".

Shunday qilib, Markaziy banklar - "banklar banki"ga aylantirib yuborildi, ya'ni, ularning mijozlari tijorat banklari hisoblanadi. Markaziy banklar o'zlarining joriy (depozit) raqamlarida tijorat banklarining pul mablag'larini aks ettiradilar, ularning naqd pullarini to'ldirishga bog'liq operatsiyalarni amalga oshiradilar, tijorat banklariga kreditlar beradilar. Markaziy banklar ko'p hollarda Davlat banklari hisoblanadilar. Shu bilan birga, barcha emission banklarning yana bir asosiy funksiyalariga ochiq bozordagi operatsiyalar va deviz operatsiyalari kiradi. Ular davlatning qimmatbaho qog'ozlar, xorijiy va milliy valyutalarni milliy valyuta kurslarini ushlab turish maqsadida sotadi va sotib oladi.

Lekin, umuman olganda, Markaziy banklar tomonidan bajariladigan operatsiyalar quyidagi to'rt guruhga (turga) bo'linadi:

1. Banknotlarning monopol emissiyasini amalga oshirish;
2. Markaziy bank - banklar banki hisoblanadi;
3. Markaziy bank - hukumat banki hisoblanadi;

4. Markaziy bank pul - kreditni tartibga soladi va bank nazoratini amalga oshiradi.

Yuqorida aytib o'tiiganlardan ko'rinadiki, umuman olganda, Markaziy bankning barcha funksiyalari o'zaro bog'liqdir. Davlatga kredit berish orqali Markaziy bank kredit muomala vositalarini yaratadi. Hukumatning majburiyatlarini chiqarish va qoplash orqali u ssuda foiziga ta'sir ko'rsatadi. Sanab o'tilgan funksiyalari orqali Markaziy bank o'zining asosiy funktsiyasi - mamlakat pul-kredit tizimini tartibga solish funksiyasiga asos yaratadi va iqtisodiyotni tartibga soladi.

Markaziy bankning pul-kredit siyosati umumiy iqtisodiy infratuzilmalarni tartibga solish, bozor konyukturasini yuqori darajada ushlab turish, bandlikka ta'sir o'tkazish, inqirozli tushumlarning oldini olishning ajralmas qismi sifatida namoyon bo'ladi.

Pul-kredit siyosati usullari umumiy, ya'ni mamlakat kredit munosabatlari holatiga umumiy ta'sir ko'rsatuvchi yoki selektiv, ya'ni alohida olingan kredit turlariga ta'sir ko'rsatish uchun yo'naltirilgan hamda alohida korxona, jumladan, tarmoqlarni kreditlash uchun yo'naltirilgan bo'lishi mumkin.

Pul-kredit siyosatining umumiy usullariga:

- Markaziy bankning hisobga olish siyosati yoki foiz stavkalarini tartibga solish siyosati;
- ochiq bozordagi operatsiyalar yoki davlat qimmatbaho qog'ozlarini sotib olish va sotish;
- majburiy zahira normalarini o'zgartirishlar kiradi.

Hisobga olish siyosati Markaziy bankning tijorat banklari uchun oxirgi navbatdagi zahira sifatida kreditoriga ayalanishi bilan bog'liq.

Majburiy zahira normalarini tartibga solish — bu hukumat talabi asosida tijorat banklarining belgilangan miqdordagi pul mablag'larining Markaziy bankdagi foizsiz hisob varag'iga o'tkazilishidir.

Ochiq bozordagi operatsiyalar - bu markaziy bankning tijorat va g'azna obligatsiyalari va boshqa qimmatbaho qog'ozlarni bozor kursi yoki oldindan e'lon qilingan kurs bo'yicha sotib olishi va sotishi hamda qayta kelishuvlaridir.

Markaziy bank pul-kredit siyosatining selektiv usullariga:

- limitfar, kvotalar o'rnatish orqali kredit miqdorini yoki veksellarni hisobga olishni to'g'ridan-to'g'ri qisqailirish;
- kredit operatsiyalarining o'sish darajasini pasaytirish;
- alohida olingan turdagi kreditlar ustidan nazorat o'rnatish;
- alohida olingan jamg'armalarga yuqori foizlarni o'matish yoki umuman foiz stavkalarini tartibga solish va boshqalar kiradi.

5. O'zbekiston banklarining rivojlanish yo'llari va islohotlari.

Bozor iqtisodi sharoitida banklarining roli, ularning iqtisodga ta'siri o'sib bormoqda. •

Banidar va uning Krediti mavjud Kapital tarmoqlar o'rtasida, ishtab chiqarish va muomala sohasida taqsimlanadi va qayta taqsimlanadi.

Oxirgi yillarda tijorat banklarining soni, ular bajaradigan operatsiyalar, ularning ustav fondi va qo'yilmalari salmogi oshib bormoqda. Hozirgi Kimda O'zbekistonda 30 dan ortiq tijorat banklari faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonunida tijorat banklarining quyidagi operatsiyalari qayd qilingan:

1. Mijozlarning hisob varaqalarini yuritish;
2. Mijozlarga kassa xizmati ko'rsatish;
3. Mijozning topshirig'iga binoan naqd pulsiz hisob-kitoblarni bajarish;
4. Qisqa yoki uzoq muddatli kreditlar berish;
5. Shartnoma yoki pullik asosida, buyurtiruvchining topshirig'iga binoan, kapital qo'yilmalarini mablag' bilan ta'minlash;
6. Bo'sh pul mablag'lari - depozitlarini muomalaga jalb qilish;
7. Aholidan omonatlarni qabul qilish;

8. Faktoring operatsiyalarini amalga oshirish;

9. Lizing operatsiyalari ni amalga oshirish;

10. Davlatning hamda boshqalarning qimmatbaho qog'ozlarini xarid qilish va sotish;

11. Xorijiy valyuta va qimmatbaho metallarni xarid qilish va sotish;

12. O'z mijozlari uchun kafolat va majburiyatlar berish;

13. Byudjetning kassa ijrosini bajarish;

14. Bank operatsiyalari bo'yicha maslahatlar berish va boshqa operatsiyalar.

Banklarning operatsiyalari ularning bevosita faoliyati (vazifasi) orqali amalga oshiriladi. Shunday vazifa, yuqorida ko'rib o'tganimizdek, o'zaro bog'liq ikki turga bo'linadi.

Passiv bank mablag'larini shakkitantirish bo'yicha operatsiyalar.

Aktiv -- bunday mablag'larni joylashtirish hamda foydalanish bilan bog'liq operatsiyalar.

Bank mablag'lari o'ziga tegishli va jalb etilgan mablag'lardan vujudga kefadi. O'ziga tegishli mablag'lar odatda banklar tasarrufidagi barcha mablag'larning faqat uncha katta bo'lmagan qismlarini tashkil etadi. Ularning asosiy qismi depozitlar yoki banklarning mijozlariga qarashli omonatlardan iborat.

Bankning aktiv operatsiyalariga avvalo beriladigan foizli ssudalar yoki kreditlar kiradi.

Qimmatli qog'oz garovga olinib beriladigan ssudalar, shuningdek, mana shunday qog'ozlarni xarid qilish operatsiyalari fond operatsiyalari deb yuritiladi.

Bugungi kunda respublikada davlat mulkini xususiylashtirish bilan bog'liq jarayonlar keng o'rin olganligi sababli, korxonalarga tegishli qimmatli qog'ozlar bozoriga nisbatan davlat qimmatli qog'ozlar bozori aktiv harakat qilmoqda. Bu bozorda asosiy qatnashchilar sifatida esa tijorat banklari maydonga chiqmoqda.

Respublika iqtisodiyotiga kirib kelayotgan "Lizing" jarayonlari bugungi kunda ishlab chiqarishni texnika va texnologiya bilan ta'minlash hamda qayta jihozlashda muhim ahamiyat kasb etadi.


Tijorat banklari tomonidan olib borilayotgan bank faoliyatiga bugungi kunda "Trast" xizmatlari ham kirib kelmoqda. Trast xizmatlari respubiika banklari uchun yangi hisoblansa-da, uni o'ziashtirish sohasida ko'plab ishiar olib boriimoqda.

Jahon banklari ish faoliyatida axborotlarni sotish va moliyaviy maslahatlar kabi xizmatlar ham keng o'rin olgan. Bizning oldimizda turgan masalalardan biri ham bu sohani o'rganishdir.

"O'zbekistonning moliyaga doir yordamchi tarmoqlarini, mamlakatning bank tizimini takomiilashtirish biz uchun birinchi navbatdagi vazifadir"¹, - deya e'tirof etilgan. Chunki Mustaqillik e'lon qilingunicha mamlakatda mustaqil bank tizimi mavjud emas edi va mavjud bank muassasalari sobiq Ittifoq bank tizimining tarkibiy qismi hisoblanardi.

O'zbekistonda bank tizimini shakllantirish jarayonini shartli ravishda bir necha bosqichlarga bo'lish mumkin.

**2012 йил январь–июнь ҳолатига
юридик шахсларга тақдим этилган микрокредитлар**



Bank tizimiga xususiy kapitalni jalb etish bilan birga, bankiarni korporativ boshqarish tizimini yanada mustahkamlashga doir chora-tadbirlar ham amalga oshirildi.

So'nggi ikki yil ichida bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilishga qaratilgan bir qator Prezident Farmonlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari qabul qilindi.

Shunisi e'tiborliki, tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan mikrokreditlarning 50 foizigacha bo'lgan miqdorini naqd piilda berish, bank bilan doimiy aloqada bo'lgan va yaxshii kredit tarixiga ega tadbirkorlarga esa hatto ta'minotsiz, faqatgina ariza va biznes rejaga asosan ishonchli mikrokreditlar berish amaliyoti yo'lga qo'yilib, ishlab chiqarish mikrofirmalari, kichik va o'rta korxonalar, dehqon va fermer xo'jaliklarining yuqori texnologik va innovatsiya loyihalarini kreditlash maqsadida imtiyozli kreditlash jamg'armasi tashkil qilindi.

O'tgan davr mobaynida bank tizimi faoliyati iqtisodiyotni barqarorlashtirish, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish maqsadida qulay makroiqtisodiy shart-sharoitlar yaratishga qaratildi.

Xulosa .

Hozirda iqtisodiyotning muhim sohalarida alohida xizmat ko'rsalayotgan banklar niaskur tarmoqlarni yanada rivojlantirish va undagi mavjud mablag'larni, bor imkoniyatlarni samarali ishga solish imkonini yaratib beradi va iqtisodiy isiohotlarning jadallik bilan amalga oshishiga xizmat qiladi.

Bank tizimini yanada erkjnlashtirish va isloh qilishni chuqurlashtirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va hukumat qarortari asosida bank tizimini tubdan mustahkamlashga, ularning kredit berish imkoniyatlarini va ustav kapitalini bo'sh mablag'lar jalb qilish hisobidan kengaytirishga, shuningdek, banklaming investitsiya jarayonining asosiy bo'g'ini bo'lgan korxonalar, xususan xususiy tadbirkorlar, kichik va o'rta biznes korxonalarining chinakam hamkoriga aylanishiga, xorijiy banklar bilan hamkorUkning yanada kengaytirifishiga alohida e'tibor qaratildi.

Inflyatsiyaning har tomonlama avj olib ketishi mamlakatda sotsial va iqtisodiy jihatdan qarama-qarshiliklar yuzaga kelishiga olib keladi. SHuning uchun davlat inflyatsiyaning oldini olish uchun pul muomalasini barqarorlashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqmoqda.

Hozir ko'pgina davlatlarda pul muomalasini tartibga solishda ochiq bozorda operatsiyalar o'tkazish usulidan foydalanilmoqda.

Bu xozirgi ko'p qo'llaniladigan monetar siyosatning bir usuli hisoblanadi. Bu usul tijorat banklarining likvidlik darajasiga tezda ta'sir o'tkaza oladigan egiluvchan (moslashuvchan), amaliy va operativ usul hisoblanadi. Bu usulni boshqalaridan farqi shundaki, uni zaruriyatga qarab va hohlagan miqdorda o'tkazish mumkin. Bu mexanizm bozorni rivojlanish tendentsiyasiga qarab pul muomalasini barqarorlashtira olishi mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, kreditning ob'ektiv zarurligi takror ishlab chiqarish jarayonida fondlarning doiraviy aylanishi qonuniyatlariga asoslangandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 2012
2. O'zbekiston Respublikasi qonuni. Bank va bank faoliyati to'g'risida. 1996 yil 5 aprel. - T.: "Adolat", 1999.
3. Karimov I.A. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" O'zbekiston-2011.
4. Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – T., «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2009. – 734 b.
5. Sh.Z.Abdullaeva «Pul, kredit va banklar». Toshkent, «Moliya», 2000 yil.
6. V.A.Chjen «Moliya va pul bozorlari». Toshkent, «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 1996 yil.
7. Bekmurodov A., Tojiev R., Qurbonov X., Alimardonov M. O'zbekiston iqtisodiyotni liberallashtirish yillarida. 4-qism. Moliya va bank tizimidagi islohotlar samarasi. T.: TDIU, 2005. – 63 b.
8. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti.
9. www.uza.uz – O'zbekiston Respublikasi Milliy Axborot Agentligi rasmiy sayti.
10. www.ceep.uz – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi huzuridagi Samarali iqtisodiy siyosat markazi rasmiy sayti.